

KASBIY STANDART

Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish mutaxassislari

(kasbiy standartning nomi)

Reestr raqami:

QR-kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi:

Mazkur kasbiy standart neft va neft mahsulotlarining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, tarkibi va sifatini laboratoriya sharoitida nazorat qilish, sinovdan o'tkazish, tahlil natijalarini rasmiylashtirish hamda belgilangan standartlar va texnik reglamentlarga muvofiqligini baholash bilan bog'liq kasbiy faoliyatni tartibga solishga mo'ljallangan normativ hujjat hisoblanadi.

Kasbiy standart quyidagi tashkilotlar va subyektlar tomonidan qo'llaniladi:

neftni qazib olish, qayta ishlash va saqlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar;

neft mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish va realizatsiya qilish bilan bog'liq tashkilotlar;

neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qiluvchi laboratoriyalar (ishlab chiqarish, texnologik, markaziy va mustaqil sinov laboratoriyalari);

kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va trening muassasalari;

xodimlarning malakasini baholash, attestatsiyadan o'tkazish va sertifikatlash bilan shug'ullanuvchi vakolatli organlar va baholash markazlari.

Ushbu kasbiy standart neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar (laborantlar)ning mehnat funksiyalari, mehnat vazifalari, zarur bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek mehnatni muhofaza qilish, sanoat va yong'in xavfsizligi, ekologik hamda metrologik talablar bo'yicha majburiy kasbiy talablarni belgilaydi.

Kasbiy standart mulkchilik shaklidan qat'i nazar, neft va neft mahsulotlari sifatini laboratoriya nazoratidan o'tkazish bilan bog'liq ishlarni bajaruvchi mutaxassislar (laborantlar)ga nisbatan tatbiq etiladi hamda neft mahsulotlari sifatini ta'minlash, iste'molchilar xavfsizligini oshirish va texnik reglamentlarga muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

ko'nikma – mehnat vazifani to'liq bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarni qo'llash qobiliyati;

kasb – maxsus ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir faoliyat turi;

ko'nikma (maxorat) – shaxsning mehnat vazifani samarali bajarishga imkon beradigan bilim va mahoratlarini ma'lum bir sharoitda avtomatik tarzda qo'llay olishi;

mas'uliyat va mustaqillik – ko'rsatkichi xodimning umumiy kompetensiyasini belgilaydi hamda quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

malaka – shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgust 275-son "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (IFUT-2);

Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish mutaxassislari	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Uglevodorod xom ashyosining va uni qayta ishlash mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari (xarakteristikalarini)ning belgilangan talablarga mosligini baholashni ta'minlash	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	06 Xom neft va tabiiy gaz qazib olish 06.10 - Xom neft qazib olish 06.20 - Tabiiy gaz qazib olish 09 Tog'-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar 09.10.0 Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar 19.20 Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 19.20.0 Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 49.5 Quvurlar orqali yuk tashish 49.50.0 Quvurlar orqali yuk tashish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Mahsulot sifatini nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar laboratoriya tadqiqotlarini olib boradi, bu esa neft tarkibidagi tuzlar, to'yinmagan uglevodorodlar, oltingi miqdori, zichligi, fraksion tarkibi, suvning massaviy ulushi, parafinlar, mexanik qo'shimchalar va boshqa parametrlarni baholash imkonini beradi.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		31119 Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish laboranti	5
		21452 Muhandis-laborant	6
		13220064 Laboratoriya boshlig'i	7

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	31119 Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish laboranti	A1.5	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish bo'yicha ishlarni olib borish	A1.01.5	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish (tahlil qilish, o'lchash, tadqiqot o'tkazish) ishlarini bajarish
				A1.02.5	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun laboratoriya jihozlari (ustanovkalar, asboblari, apparatlar, instrumentlar, moslamalar)dan foydalanish
				A1.03.5	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha hujjatlarni yuritish
2	21452 Muhandis-laborant	B1.6	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilishni tashkil etish	B1.01.6	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazishni tashkil etish
				B1.02.6	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun laboratoriya uskunalari ekspluatatsiya qilishni tashkil etish
				B1.03.6	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlarini nazorat qilishning normativ-texnik ta'minoti
3	13220064 Laboratoriya boshlig'i	D1.7	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifati	D1.01.7	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlarini nazorat qilish bo'yicha bo'linma (laboratoriya) xodimlariga rahbarlik qilish.

			nazorati ishlariga rahbarlik qilish.	D1.02.7	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlarini nazorat qilish bo'limi (laboratoriyasi) xodimlariga rahbarlik qilish
				D1.03.7	Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlarini nazorat qilishning normativ-texnik ta'minotiga rahbarlik qilish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish laboranti	
Mashg'ulot nomining kodi:	31119	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	5	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	1 yildan kam bo'lmagan ish staji	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Jismoniy shaxslarning 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Majburiy dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tish Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quvdan o'tish va mehnatni muhofaza qilish talablarini bilishini tekshirish Sanoat xavfsizligi bo'yicha tayyorgarlik va attestatsiyadan o'tish Yong'in xavfsizligi bo'yicha o'quvdan o'tish Elektr xavfsizligi bo'yicha I guruh doirasida bilimlarni tekshirishdan o'tish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	1) o'rta maxsus professional ta'lim 2) boshlang'ich professional ta'lim yoki o'rta professional ta'li	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	–	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	31119 Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish texnik-laboranti 31119004 Texnik-laborant (umumiy yo'nalish) 31162001 Neft va gaz kimyosi bo'yicha texnik-kimyogar 31119001 Gaz va chang tahlili laboranti 31172016 Xom neft laboranti 31111007 Texnik-kimyogar laborant	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	13220064 Laboratoriya boshlig'i
	6	21452 Muhandis-laborant
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.5- Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlanish	A1.01.5- Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining namunalarini tanlab olish ishlarini nazorat qilish.

mahsulotlari sifatini nazorat qilish bo'yicha ishlarni olib borish	mahsulotlarini sinovdan o'tkazish (tahlil qilish, o'lchash, tadqiqot o'tkazish) ishlarini bajarish	2. Fizik-kimyoviy ko'rsatkichlar (xarakteristika) sifatiga muvofiqligini aniqlash uchun laboratoriyaga kelib tushgan namunalarni qabul qilish, hisobga olish va utilizatsiya qilish.
		3. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining namunalarini markirovka qilish.
		4. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar, eritmalar va materiallarni tayyorlash.
		5. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini belgilangan normalarga muvofiq fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun sinovdan o'tkazish.
		6. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalari ishonchli bo'lishi uchun tashqi muhit sharoitlarini (harorat, havo namligi, atmosfer bosimi) nazorat qilish.
		7. Normativ talablarga muvofiqligini baholash (sertifikatsiya, deklaratsiyalash, pasportlashtirish) maqsadida mahsulotni sinovdan o'tkazish.
		8. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini laboratoriyalararo qiyosiy sinov dasturlari asosida sinovdan o'tkazish.
		9. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalari sifati bo'yicha ichki nazoratni amalga oshirish.
		10. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalarini o'rganish.
		11. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar va materiallarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash, chiqarib tashlash va utilizatsiya qilish.
		12. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazishda qo'llaniladigan reaktivlar, eritmalar va materiallarning yaroqlik muddatini nazorat qilish.
		Ko'nikmalar:
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining namunalarini tanlab olish.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun kelib tushgan namunalarni markirovka qilish, hisobga olish va utilizatsiya qilish.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar, eritmalar va materiallarni tayyorlash va qo'llash.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun kerakli laboratoriya uskunalarini tanlash va ishlatish.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun tegishli sinov metodikasini tanlash va qo'llash.

	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, miqdoriy va sifat tarkibini laboratoriya sinovlaridan o'tkazish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalari ishonchli bo'lishi uchun tashqi muhit sharoitlarining (harorat, havo namligi, atmosfer bosimi) ta'sirini baholash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalari sifati bo'yicha ichki nazoratni va laboratoriyalararo qiyosiy sinovlarni amalga oshirish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlari qiymatlarini sinov metodikasi talablariga muvofiq hisoblash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalarini nazorat namunalari natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalarini tizimlashtirish va ishonchligini baholash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar va materiallarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash, chiqarib tashlash va utilizatsiya qilish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati nazorati bo'yicha normativ-texnik hujjatlardan foydalanish.
	Reaktivlar, eritmalar va materiallarning yaroqlik muddatlarini kuzatib borish.
	Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari hamda yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining namunalari tanlab olish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun kelib tushgan namunalarni markirovka qilish, hisobga olish va utilizatsiya qilish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar, eritmalar va materiallarni tayyorlash va qo'llash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun kerakli laboratoriya uskunalari tanlash va ishlatish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun tegishli sinov metodikasini tanlash va qo'llash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari, miqdoriy va sifat tarkibini laboratoriya sinovlaridan o'tkazish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalari ishonchli bo'lishi uchun tashqi muhit

		sharoitlarining (harorat, havo namligi, atmosfer bosimi) ta'sirini baholash.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalari sifati bo'yicha ichki nazoratni va laboratoriyalararo qiyosiy sinovlarni amalga oshirish.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlari qiymatlarini sinov metodikasi talablariga muvofiq hisoblash.
		Bilimlar:
		Umumiy, organik, noorganik, fizik va tahliliy kimyo asoslari.
		Laboratoriya ishlari texnikasi.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini (xususiyatlarini) aniqlash va namunalarni tanlab olish tartibi.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini (xususiyatlarini) aniqlash uchun laboratoriyaga kelib tushgan namunalarni utilizatsiya qilish tartibi.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari.
		Neft va uni qayta ishlash mahsulotlarining turlari.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati aniqlanadigan ko'rsatkichlar ro'yxati.
		O'lchash natijalarining metrologik baholash usullari.
		Ximik reaktivlar, eritmalar va materiallar bilan ishlash qoidalari hamda ularni saqlash muddatlari.
		Laboratoriya jihozlari, ularning ishlash tamoyillari va ekspluatatsiya qoidalari.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifati ko'rsatkichlarini (xususiyatlarini) aniqlash bo'yicha standartlar, texnik shartlar, tashkilot metodikalari.
		Sinov laboratoriyalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan standartlar, texnik reglamentlar, tavsiyalar, yo'riqnomalar, qoidalar.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish usullari.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinov natijalari ishonchligiga tashqi muhit (harorat, havo namligi, atmosfer bosimi) ta'siri.
		Normativ talablarga muvofiq uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini muvofiqlikni baholash (sertifikatsiya, deklaratsiya, pasportlashtirish) maqsadida sinov o'tkazish tartibi, laboratoriyalararo qiyosiy sinovlar.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalarini ichki sifat nazoratidan o'tkazish tartibi.
		Normativ-huquqiy hujjatlari, texnik hujjatlar, mahalliy normativ hujjatlar va buyruq hujjatlarida uglevodorod

		xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish bo'yicha qo'yilgan talablar.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar va materiallarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash, chiqarish va utilizatsiya qilish tartibi.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun eritmalarni tayyorlash, qo'llash va utilizatsiya qilish tartibi.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish uchun reaktivlar va materiallarni sarf qilish me'yorlari.
		Normativ-huquqiy hujjatlari, mahalliy normativ hujjatlar va buyruq hujjatlarida reaktivlar, eritmalar va materiallarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash, chiqarish va utilizatsiya qilish bo'yicha qo'yilgan talablar.
		Ortiqcha bosim ostida ishlaydigan jihozlar bilan ishlash qoidalari.
		Mehnat muhofazasi, sanoat, yong'in va ekologik xavfsizlik talablari.
	A1.02.5- Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun laboratoriya jihozlari (ustanovkalar, asboblari, apparatlar, instrumentlar, moslamalar)dan foydalanish	Mehnat harakatlari:
		1. Laboratoriya uskunalarning yaxlitligi va ishlash qobiliyatini vizual tekshirish.
		2. Laboratoriya uskunalari ekspluatatsiya qilish sharoitlariga rioya qilish.
		3. O'lchov vositalarini qiyoslash, kalibrlash, sinov uskunalari attestatsiyadan o'tkazish, yordamchi uskunalarning texnik holatini tekshirish kabi metrologik ta'minlash tadbirlarini o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish.
		4. Laboratoriya uskunalari ekspluatatsiya hujjatlari va sinov metodikalari talablariga muvofiq tartibga solish, sozlash va gradirovkash.
		5. Foydalanilayotgan laboratoriya uskunalari texnik xizmat ko'rsatishdan o'tkazish.
		6. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun laboratoriya uskunalari tayyorlash.
		7. Laboratoriya uskunalari ishlash jarayonini kuzatish.
		8. Asboblarning ko'rsatkichlarini olish
		Ko'nikmalar:
		Laboratoriya uskunalari holatini ekspluatatsiya hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlash.
		Laboratoriya uskunalari ekspluatatsiya qilish sharoitlarining uning to'g'ri ishlashiga va uglevodorod xomashyosi hamda uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalarining ishonchligiga ta'sirini baholash.
		Laboratoriya uskunalariidagi nosozliklarni aniqlash.
		Laboratoriya uskunalari texnik xizmat ko'rsatish.

	Laboratoriya uskunalarini uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazishga tayyorlash ishlarini bajarish.
	Laboratoriya uskunalarini ekspluatatsiya hujjatlari va sinov metodikalari talablariga muvofiq tartibga solish, sozlash va graduirovkalash.
	Laboratoriya uskunalaridan foydalanish bo'yicha normativ-texnik hujjatlardan foydalanish.
	Laboratoriya uskunalaridan foydalanish.
	O'lchov vositalarini qiyoslash, kalibrlash, sinov uskunalarini attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha hujjatlarning normativ talablarga muvofiqligini baholash.
	Asboblarning ko'rsatkichlarini aniqlash.
	Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari hamda yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish.
	Bilimlar:
	Laboratoriya uskunalarining maqsadi, tuzilishi va ishlash prinsipi.
	Laboratoriya uskunalarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha talablarni belgilaydigan standartlar, texnik reglamentlar, yo'riqnomalar va qoidalar.
	Sinov laboratoriyalariga qo'yiladigan talablarni belgilaydigan standartlar, texnik reglamentlar, tavsiyalar, yo'riqnomalar va qoidalar.
	Laboratoriya uskunalarining ishchi parametrlari va ulardagi yo'l qo'yilgan og'ishlar.
	Laboratoriya uskunalaridagi nosozlik turlari.
	Laboratoriya uskunalarini ekspluatatsiya qilish sharoitlarining uning to'g'ri ishlashiga va uglevodorod xomashyosi hamda uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalarining ishonchligiga ta'siri.
	Foydalanilayotgan laboratoriya uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish tartibi.
	Laboratoriya uskunalarini uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazishga tayyorlash tartibi.
	O'lchov vositalarini qiyoslash, kalibrlash, qo'llanilayotgan sinov uskunalarini attestatsiyadan o'tkazish, yordamchi uskunalarning texnik holatini tekshirish davriyligiga qo'yiladigan talablar.
	Asboblarning ko'rsatkichlarini olish qoidalari.
	Laboratoriya uskunalaridan foydalanish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot.
	Mehnat muhofazasi, sanoat, yong'in va ekologik xavfsizlik talablari.
	Mehnat harakatlari:

A1.03.5- Uglevodorod xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha hujjatlarni yuritish	1. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari namunalarini qabul qilish, hisobga olish va utilizatsiya qilish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.
	2. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobot hujjatlarini (akti, bayonnomalar) tayyorlash va to'ldirish.
	3. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalari bo'yicha hamrohlik qiluvchi hujjatlar, hisobot hujjatlari (akti, bayonnomalar) hisobini yuritish va saqlash.
	4. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar, eritmalar va materiallarni qabul qilish, saqlash, hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish.
	5. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha hisoblash va grafik ishlarini bajarish, jumladan, sinov natijalarining sifatini nazorat qilish hamda uskunalarni graduirovkalash ishlari.
	6. Laborant sinovlarini ro'yxatga olish, sinov natijalarini ro'yxatga olish jurnallari, tashqi sharoit ko'rsatkichlari (atrof-muhit sharoitlari)ni ro'yxatga olish jurnallari, reaktivlar tayyorlash jurnallari kabi texnik hujjatlar, boshlang'ich yozuvlar va ish jurnallarini yuritish.
	7. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish jarayonida nomutanosibliklarni aniqlash va ro'yxatga olish.
	8. Hujjat aylanmasi yakunlangan hujjatlarni rasmiylashtirish.
	Ko'nikmalar:
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari namunalarini qabul qilish, hisobga olish va utilizatsiya qilish bo'yicha hujjatlarni to'ldirish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalari bo'yicha hisobot hujjatlarini (akti, bayonnomalar) rasmiylashtirish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish natijalari bo'yicha hamrohlik qiluvchi hujjatlar, hisobot hujjatlari (akti, bayonnomalar)ni ro'yxatga olish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish uchun reaktivlar, eritmalar va materiallarni qabul qilish, saqlash, hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish bo'yicha hujjatlarni to'ldirish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha hisoblash va grafik ishlarini bajarish, jumladan, sinov natijalarining sifatini nazorat qilish hamda uskunalarni graduirovkalash ishlari.
	Normativ-texnik hujjatlar bilan ishlash.

		Shaxsiy kompyuter va uning periferiya qurilmalari hamda ofis texnikasidan foydalanish.
		Maxsus dasturiy taʼminotdan foydalanish.
		Boshlangʻich yozuvlar va texnik hujjatlarni rasmiylashtirish.
		Arxivga saqlash uchun hujjatlarni tayyorlash.
		Bilimlar:
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan oʻtkazish boʻyicha hujjatlarni rasmiylashtirish talablari, mahalliy normativ hujjatlar va tashkiliy buyruqlar.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan oʻtkazish natijalari boʻyicha hamrohlik qiluvchi hujjatlar, hisobot hujjatlari (akti, bayonnomalar)ni hisobga olish, roʻyxatga olish va saqlash tartibi.
		Reaktivlar, eritmalar va materiallarni qabul qilish, saqlash, hisobdan chiqarish va utilizatsiya qilish boʻyicha hujjatlarni rasmiylashtirish talablari.
		Sinov ishlari boʻyicha texnik hisob-kitoblar, hisoblash va grafik ishlarini amalga oshirish usullari va vositalari, qoʻllaniladigan axborot tizimlarining funksional imkoniyatlari.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan oʻtkazish jarayonida nooʻrinliklarni aniqlash usullari.
		Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlariga oid standartlar va texnik shartlar.
		Sinov laboratoriyalariga qoʻyiladigan talablarni belgilaydigan standartlar, texnik reglamentlar, tavsiyalar, yoʻriqnomalar va qoidalar.
		Yakuniga yetkazilgan ish yuritish hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi.
		Foydalanuvchi darajasida shaxsiy kompyuterda ishlash qoidalari, faoliyat yoʻnalishiga muvofiq qoʻllaniladigan dasturiy taʼminot.
Mehnat muhofazasi, sanoat, yongʻin va ekologik xavfsizlik talablari		
Masʼuliyat va mustaqillik:	Oʻz harakatlari, ish natijalari uchun javobgarlik	
	Zarur boʻlganda, muammolarni hal qilish uchun mustaqil qarorlar qabul qilish	
Texnik va/yoki texnologik talab	Uglevodorod xomashyosi va neft mahsulotlarini fizik-kimyoviy tahlil usullarini bilish.	
	Xromatograf, spektrometr, viskozimetr kabi laboratoriya uskunalari bilan ishlash koʻnikmasiga ega boʻlish. Sanoat xavfsizligi talablari va kimyoviy moddalar bilan ishlash qoidalarini bilish.	

Kasbning nomi:	Muhandis-laborant	
Mashg'ulot nomining kodi:	21452	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	6	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Faoliyat yo'nalishi bo'yicha ish staji kamida 3 yil.	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Jismoniy shaxslarning 18 yoshga to'lgan bo'lishi; Majburiy dastlabki va davriy tibbiy ko'riklardan o'tish Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha o'quvdan o'tish va mehnatni muhofaza qilish talablarini bilishini tekshirish Sanoat xavfsizligi bo'yicha tayyorgarlik va attestatsiyadan o'tish Yong'in xavfsizligi bo'yicha o'quvdan o'tish Elektr xavfsizligi bo'yicha I guruh doirasida bilimlarni tekshirishdan o'tish	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	bakalavriat yoki o'rta maxsus professional ta'lim va kasbiy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	—	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi:	—	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Neft va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish bo'yicha muhandis 21459002 Kimyoviy tahlil usuli muhandisi 21452004 Neft-kimyo mahsulotlari kimyogar muhandisi 21452002 Neft va gaz sohasida kimyogar muhandis 21411004 Muhandis-texnolog (umumiy) 21414003 Sifat nazorati bo'yicha muhandis 21414001 Mahsulot sifati bo'yicha muhandis	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	7	13220064 Laboratoriya boshlig'i
	6	21414 Neft va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish bo'yicha yetakchi muhandis
	5	31119 Neft va neft mahsulotlari sifatini nazorat qilish laboranti
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.6- Uglevodorod	B1.01.6- Uglevodorod	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:

xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilishni tashkil etish	xomashyosi va uning qayta ishlash mahsulotlarini sinovdan o'tkazishni tashkil etish	1. Birgalikda boshqa tuzilmaviy bo'linmalar bilan uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlaridan namuna olish jadvalini ishlab chiqish va uning bajarilishini tashkil etish.
		2. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish jadvalini ishlab chiqish va uning bajarilishini tashkil etish.
		3. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinovlari natijalari sifati bo'yicha ichki nazorat jadvalini ishlab chiqish va uning bajarilishini tashkil etish.
		4. Boshqa xodimlar bilan birgalikda uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlaridan namuna olish joylarini aniqlash va xavfsiz namuna olishni tashkil etish.
		5. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari namunalarini qabul qilish, hisobga olish va markirovkalashni nazorat qilish.
		6. Namuna olish va uglevodorod xomashyosi hamda uni qayta ishlash mahsulotlari sinovlari natijalari bo'yicha hamroh hujjatlarni (aktlar, protokollar) to'ldirishni nazorat qilish.
		7. Sinovlarni, jumladan, laboratoriyalararo taqqoslash sinovlarini, uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari normativ talablarga muvofiqligini baholash maqsadida o'tkaziladigan sinovlarni tashkil etish yoki o'tkazish.
		8. Sinov natijalari bo'yicha hisobot hujjatlarini (aktlar, protokollar) rasmiylashtirish yoki uning rasmiylashtirilishini nazorat qilish, hisobot hujjatlarini axborot tizimlari orqali shakllantirish.
		9. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari bo'yicha o'tkazilgan sinov natijalari bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish.
		10. Sinov natijalarining belgilangan talablarga muvofiqligini baholash.
		11. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalarining ishonchliligi, obyektivligi va zarur aniqligini nazorat qilish, ichki sifat nazorati natijalarini statistik ishlash.
		12. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalari spetsifikatsiya yoki standartga muvofiqligini tasdiqlovchi xulosa rasmiylashtirish.
		13. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining sifat pasportlarini hisobga olish va saqlash.
		14. Laboratoriya faoliyatini yaxshilash va uglevodorod xomashyosi hamda uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalari ishonchliligini oshirishga qaratilgan xavflarni aniqlash va baholash.

	15. Nazorat (nazorat organlari) va tashqi tashkilotlar tomonidan rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlarni o'tkazilishini ta'minlash.
	16. Nazorat (nazorat organlari) va tashqi tashkilotlar tomonidan rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlar natijasida aniqlangan nomutanositliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish.
	17. Laboratoriyada ichki audit (tekshiruv) o'tkazishni tashkil etish va o'tkazish, laboratoriya faoliyatining normativ-texnik hujjatlar, jumladan, sifat menejmenti tizimi talablariga muvofiqligini aniqlash va baholash.
	18. Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifat nazorati sohasida laboratoriyaning kompetentligini ta'minlash.
	19. Ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan reaktivlar, eritmalar va materiallarni yig'ish, vaqtinchalik saqlash va utilizatsiyaga topshirishni tashkil etish va nazorat qilish.
	20. Ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha belgilangan hisobotlarni shakllantirish.
	21. Texnik hujjatlarni, boshlang'ich yozuvlarni, laboratoriya xodimlari sinov jurnallarini, sinov natijalari ro'yxatga olish jurnallarini, tashqi muhit (atrof muhit sharoitlari) ko'rsatkichlari ro'yxatga olish jurnallarini, reaktivlar tayyorlash jurnallarini yuritish va nazorat qilish.
	22. Hisobot hujjatlarini (namuna olish aktlari, ro'yxatga olish jurnallari, ish jurnallari) arxivga jamlanishi bilan topshirishni nazorat qilish.
	23. Laboratoriya arxivini shakllantirish tartibi, arxiv hujjatlari ro'yxati, hujjatlarning turlari bo'yicha saqlash muddatlari, arxiv materiallarini berish va yo'q qilish tartibi bo'yicha yo'riqnomani ishlab chiqish.
	24. Laboratoriya arxiv materiallarini qabul qilish, hisobga olish, saqlash va yo'q qilish.
	25. Quyi malaka darajasidagi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish.
	Ko'nikmalar:
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlaridan namuna olish, sifat nazorati va ichki sifat nazorati natijalarini baholash jadvallarini tuzish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlaridan xavfsiz namuna olish joylarini tanlash bo'yicha talablarni qo'llash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinovlari uchun kelib tushgan namunalarni qabul qilish, markirovkalash, hisobga olish va utilizatsiya qilish.
	Namuna olish va uglevodorod xomashyosi hamda uni qayta ishlash mahsulotlari sinovlari natijalari bo'yicha hamroh hujjatlarni (aktlar, protokollar) to'ldirishni nazorat qilish.

	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarini kimyoviy va fizik-kimyoviy usullar orqali, normativ talablarga muvofiq, jumladan yangi metodikalardan foydalangan holda sinovdan o'tkazish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalari bo'yicha hisobot hujjatlarini (aktlar, protokollar) rasmiylashtirish, jumladan axborot tizimlaridan foydalangan holda.
	Normativ hujjatlar talablariga muvofiq uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarini hisoblash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarini nazorat namunalari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalarining ishonchliligi va aniqligini baholash.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sinov natijalarining spetsifikatsiya yoki standartga muvofiqligini tasdiqlovchi xulosa shakllantirish.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining sifat pasportlarini ro'yxatga olish va saqlash.
	Laboratoriya faoliyatini yaxshilash va sinov natijalari ishonchliligini oshirishga qaratilgan xavflarni aniqlash va baholash.
	Nazorat (nazorat organlari) va tashqi tashkilotlar tomonidan rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlar o'tkazilishiga laboratoriyani va tegishli materiallarni tayyorlashni ta'minlash.
	Nazorat (nazorat organlari) va tashqi tashkilotlar tomonidan rejali va maqsadli (rejadan tashqari) tekshiruvlar natijasida aniqlangan nomutanosibliklarni tahlil qilish.
	Laboratoriyada ichki audit (tekshiruv) o'tkazish va laboratoriya faoliyatining normativ-texnik hujjatlar, jumladan sifat menejmenti tizimi talablariga muvofiqligini aniqlash va baholash.
	Laboratoriyani tekshiruvlarga tayyorlash bo'yicha texnik kompetentlikni tasdiqlash uchun tadbirlar ishlab chiqish.
	Ishlatilgan reaktivlar, eritmalar va materiallarni yig'ish, vaqtinchalik saqlash va utilitatsiyaga topshirish jarayonini tekshirish.
	Arxiv materiallarini topshirish, qabul qilish, saqlash va yo'q qilish bo'yicha hisobot yuritish.
	Ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha belgilangan hisobot shakllarini to'ldirish.
	Shaxsiy kompyuter va uning periferik qurilmalari, ofis texnikasidan foydalanish.
	Ixtisoslashtirilgan dasturiy mahsulotlardan foydalanish.

	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifat nazorati bo'yicha normativ-texnik hujjatlardan foydalanish.
	Shaxsiy va jamoaviy himoya vositalari hamda yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish
	Bilimlar:
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini nazorat qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar, texnik hujjatlar, mahalliy normativ hujjatlar va buyruq hujjatlarining talablari.
	Sinov laboratoriyalari uchun talablarni belgilaydigan standartlar, texnik reglamentlar, tavsiyalar, yo'riqnomalar va qoidalar.
	Umumiy, organik, noorganik, fizik va tahlil kimyosi asoslari.
	Laboratoriya ishlari texnikasi.
	Uglevodorod xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari.
	Neftning turlari va uni qayta ishlash mahsulotlari.
	Neft va uni qayta ishlash mahsulotlari sifatini aniqlash tartibi.
